TOSHKENT SHAHAR MADANIYAT BOSHQARMASI BOSHLIG‘INING BUYRUG‘I

Toshkent sh. **№ 51** **2026-yil 8-aprel**

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2026-yil 8-apreldagi “Madaniyat vazirligi tomonidan o‘quv fanidan malaka sinovlarini ijodiy va nazariy (og‘zaki, yozma) shaklda o‘tkazish to‘g‘risida”gi 179-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarori, Madaniyat vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Milliy gvardiyaning 2026-yil 27-martdagi 01-20-11-son qo‘shma qarori hamda Madaniyat vazirligining 2026-yil 8-apreldagi “Madaniyat vazirligi tomonidan o‘quv fanidan malaka sinovlarini ijodiy va nazariy (og‘zaki, yozma) shaklda o‘tkazish to‘g‘risida”gi 179-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2026-yil 8-apreldagi “Madaniyat vazirligi tomonidan o‘quv fanidan malaka sinovlarini ijodiy va nazariy (og‘zaki, yozma) shaklda o‘tkazish to‘g‘risida”gi 179-sonli buyrug‘i ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur buyruq bilan:

Madaniyat vazirligi tizimidagi bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi Respublika musiqa va san’at texnikumi, Karim Zaripov nomidagi respublika estrada va sirk texnikumi, Milliy gvardiya Harbiy musiqa akademik litseyining (keyingi o‘rinlarda - ta’lim tashkilotlari) mutaxassislik fanlari bo‘yicha hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Musiqa madaniyati” fani pedagoglarining o‘quv fanidan malaka sinovlari ijodiy va nazariy (og‘zaki, yozma) shaklda reja-grafik asosida 2026-yil aprel-may oylarida o‘tkazilishi;

Ta’lim tashkilotlarining mutaxassislik fanlari hamda “Musiqa madaniyati” fani pedagoglarining o‘quv fanidan malaka sinovlarini ijodiy va nazariy (og‘zaki,

yozma) shaklda tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha hududiy ishchi guruhlar tarkibi 1 -ilovaga muvofiq;

Ta’lim tashkilotlarining mutaxassislik fanlari hamda “Musiqa madaniyati” fani pedagoglarining o‘quv fanidan malaka sinovlarining ijodiy va nazariy (og‘zaki, yozma) shaklini hududlar kesimida baholash komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

Ta’lim tashkilotlarining mutaxassislik fanlari hamda “Musiqa madaniyati” fani pedagoglarining o‘quv fanidan malaka sinovi natijalaridan norozi bo‘lgan pedagoglarning ariza (shikoyat)larini ko‘rib chiqish bo‘yicha apellyatsiya komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq;

Ta’lim tashkilotlari mutaxassislik fanlari hamda “Musiqa madaniyati” fani pedagoglarining o‘quv fanidan malaka (ijodiy va amaliy shaklda) sinovlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Ishchi guruhi tarkibiga ta’lim tashkilotlari, O‘zbekiston madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasidan yuqori malakali mutaxassislar jalb qilinishi inobatga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari, maktab-internatlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi Respublika musiqa va san’at texnikumi, Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk texnikumi, Milliy gvardiyasi Harbiy musiqa akademik litseyining mutaxassislik fanlari bo‘yicha pedagog kadrlari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Musiqa madaniyati” fani o‘qituvchilarining 2026-yil aprel-may oylarida belgilangan o‘quv fanidan malaka sinovlarini ijodiy va nazariy (og‘zaki, yozma) shaklda 2026-yil 16-apreldan-18-noyabrga qadar Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani 14-sonli bolalar musiqa va san’at maktabida o‘tkazilsin.

5. Ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha bosh mutaxassis (M.Baxtiyorov), Toshkent shahar bolalar musiqa va san’at maktablari direktorlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash raisi (M.Muxitdinova)larga:

malaka sinovlarini o‘tkazish uchun zarur barcha shart-sharoitlarni yaratish;

ishchi guruh shaffoflik tamoyili asosida ishlashini ta’minlash;

malaka sinovlari o‘tkazilishini umumiy nazorat qilish;

zarur hollarda hamda malaka sinovlarini yuqori saviyada o‘tishini ta’minlash maqsadida bolalar musiqa va san’at maktablari direktor, direktor o‘rinbosarlari va malakali pedagog xodimlardan ishchi guruhi tarkibini shakllantirish;

attestatsiya jarayonlarini yuqori saviyada betalofat o‘tkazish maqsadida belgilangan kunlarda qo‘riqlash xizmati xodimlarini biriktirish bo’yicha Toshkent shahar Ichki ishlar Bosh boshqarmasiga murojaat qilish vazifalari yuklatilsin.

6. Mirzo Ulug‘bek tumani 14-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi direktori (B.Kurbanov)ga:

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: IN25922514

malaka sinovlarini o‘tkazish uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilishini ta’minlash;

maktab binosini uzluksiz elektr energiyasi hamda yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan ta’minlash maqsadida zarur bacha choralarni ko‘rish;

pedagog kadrlarning o‘quv fanidan ijodiy va nazariy (og‘zaki, yozma) malaka sinovlarini baholash bo‘yicha ishchi guruhlar a’zolarining o‘z vaqtida malaka sinovlarida ishtirok etishini ta’minlasin hamda o‘quv fanidan malaka sinovlarini topshirish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish;

malaka sinovlari o‘tadigan kunlari barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida ta’lim muassasasida 2026-yil 15-apreldan 18-aprelga qadar bo‘lgan muddatlardagi o‘qish jarayonlarini ta’til kunlariga ko‘chirish vazifalari yuklatilsin.

7. Tizim tasarrufidagi barcha bolalar musiqa va san’at maktablari rahbarlariga:

Uch kun muddatda attestatsiyadan o‘tuvchi har bir pedagog kadrni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarori, Madaniyat vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Milliy gvardiyaning 2026-yil 27-martdagi 01-20-11-son qo‘shma qarori va mazkur buyruq bilan yig‘ilish o‘tkazgan holda rasman tanishtirsin hamda tanishtirganlik to‘g‘risida yig‘ilish bayoni va dalolatnomasini tuzsin;

attestatsiyaga jalb etilgan pedagog kadrlarning o‘quv fanidan malaka sinovlarida o‘z vaqtida ishtirok etishini ta’minlasin.

8. Matbuot xizmati va raqamlashtirish bo‘yicha bosh mutaxassis (J.Kurambayev):

Ijtimoiy tarmoqlarda yoritish:malaka sinovlari jarayonlarini rasmiy ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish;

malaka sinovlari jarayonlarini YouTube platformasi orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri translyatsiya qilish;

malaka sinovlari o‘tkaziladigan binoni yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan ta’minlash;

uzatilayotgan videomateriallar va ma’lumotlarni axborot xavfsizligini ta’minlash, ruxsatsiz tarqalishining oldini olish choralarini ko‘rish;

ishchi guruh faoliyatini doimiy yoritib borilishi, malaka sinovlari jarayonlarini ovozli va video tasvirga olinishini nazorat qilish hamda sifatli videolarni Madaniyat vazirligiga taqdim etish, ularni kamida bir yil saqlanishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

9. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqarma boshlig‘i v.v.b. **B.Baxromov**